

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI QOSHIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

BERKINOV ELMUROD XOSHIMJONOVICH

**KREMNIY MONOKRISTALLIDA NIKEL KIRISHMA ATOMLARI
MIKRO- VA NANOBIRIKMALARNING STRUKTURAVIY XOSSALARI**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
physical-mathematical sciences**

Berkinov Elmurod Xoshimjonovich

Kremniy monokristallida nikel kirishma atomlari mikro- va nanobirikmalarning strukturaviy xossalari..... 3

Беркинов Элмурод Хошимжонович

Структурные свойства микро- и нановключений примесных атомов никеля в монокристаллах кремния..... 25

Berkinov Elmurod Khoshimjonovich

Structural properties of micro- and nanoinclusions of nickel impurity atoms in silicon single crystals..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI QOSHIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

BERKINOV ELMUROD XOSHIMJONOVICH

**KREMNIY MONOKRISTALLIDA NIKEL KIRISHMA ATOMLARI
MIKRO- VA NANOBIRIKMALARNING STRUKTURAVIY XOSSALARI**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida mikroelektronika sohasida turli kirishmalar bilan legirlangan yarimo'tkazgichli materiallardan keng ko'lamda foydalanilmoqda. Zamonaviy mikroelektronikada keng qo'llanilayotgan 3d-metall guruhi elementlari bilan legirlangan kremniy monokristalli hajmida hosil bo'luvchi kirishma nuqsonlarining morfologik xususiyatlari, shuningdek ularning yarimo'tkazgichli kremniy elektrofizik xususiyatlariga ta'siri jadal o'rganilmoqda. Bu borada kremniy monokristalli asosida ishlab chiqarilayotgan yarimo'tkazgichli qurilmalarning turli tashqi ta'sirlarga nisbatan chidamliligini hamda ishlash muddatini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Yarimo'tkazgichli diodlar, tranzistorlar, fotoelementlar, integral sxemalar va boshqa qurilmalarni ishlab chiqarishda asosiy materiallardan biri hisoblangan kremniyning hajmida hosil bo'luvchi kirishma nuqsonlari uning elektrofizik parametrlarini boshqarishda o'ziga xos imkoniyatlar yaratadi. Shu sababdan hajmida noyob strukturaviy tuzilishga ega bo'lgan ko'p komponentli kirishma to'plamlari mavjud bo'lgan yarimo'tkazgichli kremniy asosidagi materiallarni olish, shuningdek, ularning morfologik, elektrofizik va fotoelektrik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar jahon miqyosida olib borilmoqda. Ushbu sohada yarimo'tkazgichli kremniy materialini turli kirishmalar bilan diffuziya usulida legirlashning yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda yarimo'tkazgichli materiallarni turli kirishmalar bilan legirlash orqali ularning xususiyatlarini boshqarish hamda ular asosida yaratilgan asboblarni parametrlarini kompleks o'rganish borasida muayyan natijalarga erishilmoqda. Bu borada kremniy monokristalini 3d-o'tish guruhi metallari bilan yuqori haroratli diffuziya usulida legirlash hamda turli tashqi omillar (harorat, bosim, nurlanish)ga sezgir yarimo'tkazgichli materiallar va ular asosida ko'p qatlamli strukturalar olishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-son qarorida «... fizika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash, iqtisodiyot tarmoqlaridagi muammolar yechimiga qaratilgan ilmiy ishlar ko'lamini kengaytirish; ilmiy tadqiqotlarning va innovatsiya ishlarining natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirish...»¹ vazifalari belgilangan. Mazkur yo'nalishda mikro- va nanoelektronika qurilmalarini ishlab chiqarish uchun zarur elektrofizik, fotoelektrik va optik xususiyatlarga ega bo'lgan yangi yarimo'tkazgichli materiallar-qattiq qorishmalarni yaratish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-son qarori.

O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-martdagi PQ-5011-son “Elektrotexnika va elektronika sanoatini yanada rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son «Ta’lim sifatini oshirish va fizika sohasida ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, shuningdek, ushbu sohada qabul qilingan boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyani rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining III. «Energiya, energiya resurslarini tejash, transport, mashinasozlik va asbobsozlik; zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika, elektron asbobsozlikni rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi kunga qadar 3d-metall guruhi kirishma elementlari bilan legirlangan, oldindan berilgan kattaliklarga ega bo‘lgan kremniy monokristalini olish hamda uning strukturaviy, elektrofizik, fotoelektrik xususiyatlarini tadqiq qilish muammolari quyidagi ilmiy markazlarda o‘rganilgan: Maks-Plank jamiyati qattiq jismlar kimyoviy fizikasi instituti (Germaniya), Massachuset texnologiya instituti, Berklidagi Kaliforniya universiteti – AQSh davlat tadqiqotlar universiteti (AQSh), Xitoy FANing Shanxay fizika texnika instituti (Xitoy), A.F. Ioffe nomidagi Fizika-texnika instituti, Rossiya FANing A.V.Rjanov nomidagi yarimo‘tkazgichlar fizikasi instituti, Rossiya FANing mikrostrukturalar fizikasi instituti (Rossiya), Ukraina MFANing yarimo‘tkazgichlar fizikasi instituti (Ukraina), O‘zR FANing Fizika-texnika instituti, Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti, Yadro fizikasi instituti (O‘zbekiston).

Germaniyalik olimlar P.Saring va M.Seibtlar tomonidan elektron dastali induktsiyalangan tok mikroskopiyasi (EBIC) usulida kremniy hajmida hosil bo‘luvchi ignasimon nikel nuqsonlarga e’tibor qaratilib, ularning o‘lchamlari bir necha yuzlab mikrometrga yetishi hamda katta o‘lchamli nuqsonlar atrofida maydalari jamlangani aniqlangan. Rossiyalik olimlar G.M.Gusinskiy, S.V.Barishevlar tomonidan nikel bilan legirlangan kremniyda mikroigna va mikrotrubka shakllariga ega bo‘lgan nikel to‘plamlarini hosil qilish metodikasi ishlab chiqilgan.

O‘zbekistonlik taniqli olimlar S.Z.Zaynabidinov, A.T.Mamadalimov, M.K. Baxadirxanov, Sh.B.Utamurodova, X.S.Daliyev va boshqalarning ishlarida 3d-metall guruhi elementlari bilan legirlangan kremniyning xususiyatlariga kirishma atomlari hosil qiluvchi nuqsonlarning ta’siri shuningdek, bunday kirishma nuqsonlari holatiga tashqi omillarning ta’siri batafsil tadqiq etilgan. Biroq hozirgi vaqtga qadar diffuziya usulida nikel bilan legirlangan kremniyda hosil bo‘luvchi kirishma to‘plamlarining strukturaviy tuzilishi, elementli tarkibi va tashqi ta’sirlar ostida parchalanish jarayonlari to‘liq o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F2-11 "d-elementlar kirindilari bilan legirlangan kremniyning sirt qatlamlarida va hajmida nanoo'lchamli nuqsonlarning shakllanish qonuniyatlarini tadqiq etish" (2017-2020 yy.) ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi nikel bilan legirlangan kremniyda kirishma mikro- va nanobirikmalarning strukturaviy tuzilishi, elementli tarkibi hamda tashqi ta'sirlar (harorat, bosim) ostida parchalanish ketma-ketligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kremniydagi nikel kirishma to'plamlarining o'lchamlari, shakllari va strukturaviy tuzilishining diffuziya kattaliklariga bog'liqligini o'rganish;

nikel bilan legirlangan kremniydagi kirishma mikro- va nanobirikmalarining tarkibiy tuzilishini aniqlash;

nikel bilan legirlangan kremniyning elektrofizik xususiyatlariga kirishma mikro- va nanobirikmalarining ta'sirini o'rganish;

kremniyni diffuziya usulida nikel bilan legirlash jarayonida asosiy va texnologik kirishma atomlarining o'zaro ta'sirlashuvini tahlil qilish;

Si<Ni> namunalarida tashqi ta'sirlar (harorat, bosim) ostida kirishma to'plamlarining parchalanish ketma-ketligini o'rganish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida kirishma mikro va nanobirikmalariga ega bo'lgan n- va p-tipdagi Si<Ni> namunalari olingan.

Tadqiqotning predmeti kremniy monokristalidagi kirishma nikel atomlarining mikro- va nanobirikmalari, ularning strukturaviy va tarkibiy tuzilish jihatlari, shuningdek, kirishma to'plamlarini termik tavlash va bosim ta'sirida parchalanish jarayonlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi usullar qo'llanilgan: nikel bilan legirlangan kremniy namunalari elektrofizik kattaliklarini o'lchashda zamonaviy Ecopia HMS-7000 Xoll effektini o'lchash qurilmasidan, kremniy monokristalidagi nikel kirishma to'plamlari strukturaviy tuzilishi va elementli tarkibini aniqlashda yuqori aniqlikka ega bo'lgan zamonaviy elektron mikroskopiya usullaridan, xususan Superprobe JXA-8800R (JEOL) elektron-zondli mikroskopi hamda JSM-IT200 skanerlovchi elektron mikroskoplaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kremniy monokristalini diffuziya usulida $T \geq 1273$ K haroratlarda $t = 2 \div 4$ soat davomida nikel bilan legirlaganda, uning hajmida kirishma mikro- va nanobirikmalari hosil bo'lishi aniqlangan;

ilk bor kremniyda hosil bo'lgan nikel kirishma to'plamlarining, asosan o'lchamiga bog'liq holda, ya'ni $d < 1$ mkm bo'lganda birqatlamli va $d \geq 1$ mkm bo'lganda ko'pqatlamli strukturaviy tuzilishga ega bo'lishligi aniqlangan;

elektron mikroskopiya usuli yordamida kremniyda hosil bo'lgan nikel kirishma mikro- va nanobirikmalari kimyoviy tarkibining tahlili orqali, ulardagi texnologik kirishmalar (Fe, Cu, Cr va boshqalar) atomlarining miqdori asosiy kirishma atomlarining $0.01 \div 0.001\%$ ulushi miqdorida ekanligi aniqlangan;

termik tavlash harorati $T=1073$ K ni tashkil etganda nikel kirishma nanobirikmalari n-Si<Ni> namunalarida 10 minut davomida, p-Si<Ni> namunalarida esa 15÷20 minut davomida parchalanishi aniqlangan;

$P=6 \cdot 10^8$ Pa qiymatdagi tashqi har tomonlama gidrostatik bosim ta'siri ostida n-Si<Ni> namunalaridagi o'lchami ~700 nm gacha bo'lgan ignasimon, disksimon va linzasimon kirishma nanobirikmalari, bosimning $P=1.2 \cdot 10^9$ Pa qiymatida esa o'lchami ~1 mkm gacha bo'lgan linzasimon va sharsimon shakldagi kirishma nano- va mikrobirikmalari parchalanishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nikel bilan legirlangan kremniy monokristalida kirishma mikro- va nanobirikmalarini hosil qilishning optimal texnologik sharoitlari ishlab chiqilgan;

nikel kirishma mikro- va nanobirikmalarini shakllantirish orqali kremniy monokristalini texnologik kirishmalardan tozalash imkoniyatlari aniqlangan;

nikel bilan legirlangan kremniy monokristali elektrofizik xususiyatlarini boshqarish uchun termik tavlash va har tomonlama gidrostatik bosim berishning rejimlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi nikel bilan legirlangan kremniy monokristalining elektrofizik xususiyatlari, diffuziya vaqtida va undan so'ng turli tashqi omillar ta'sirida ularda yuz beruvchi fizik jarayonlarni tadqiq qilishda umumqabul qilingan standart va keng qo'llaniladigan tadqiqot usullaridan shuningdek, tayyorlangan namunalarning elektrofizik kattaliklarini o'lchashda zamonaviy Ecopia HMS-7000 Xoll effektini o'lchash qurilmasidan, nikel bilan legirlangan kremniy monokristalida hosil bo'lgan kirishma atomlari to'plamlarining morfologik xususiyatlarini o'rganishda elektron-zondli hamda skanerlovchi elektron mikroskoplardan foydalanilganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kremniydagi nikel kirishma to'plamlarining o'lchamlari va shakllari, ularning strukturaviy tuzilishini belgilovchi asosiy omillar ekanligi, ko'pqatlamli tuzilishga ega bo'lgan nikel kirishma to'plamlarining tashqi omillar (harorat, bosim) ta'sirida parchalanish jarayoni ketma-ketligini aniqlashtirish va tahlil qilish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati nikel kirishma mikro- va nanobirikmalarining strukturaviy tuzilishini, elementli tarkibini aniqlash, kremniy nikel bilan legirlashda diffuziya kattaliklarining kirishma to'plamlari strukturaviy tuzilishiga ta'sirini aniqlash, shuningdek, kirishma mikro- va nanobirikmalariga ega bo'lgan kremniy monokristali hajmini texnologik kirishma atomlaridan tozalashdan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Nikel atomlari kirishma mikro- va nanobirikmalariga ega bo'lgan kremniy monokristalining elektrofizik xususiyatlarini tashqi ta'sirlar vositasida boshqarish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

nikel bilan legirlangan kremniyda oldindan berilgan o'lchamlar va tarkibiy tuzilmalarga ega bo'lgan kirishma mikro- va nanobirikmalari hosil bo'lishi uchun aniqlangan maqbul texnologik sharoitlardan hamda yuqori haroratlarda ($T \geq 1273$ K)

diffuziya usulida nikel bilan legirlangan kremniy monokristalida hosil bo'luvchi kirishma mikro- va nanobirikmalari tarkibida mavjud bo'lgan texnologik kirishmalar (Fe, Cu, Cr va boshqalar) atomlarining miqdori asosiy kirishma atomlarining 0.01÷0.001% ulushi miqdorida ekanligidan Belorusiya FANing materialshunoslik bo'yicha ilmiy-amaliy markazida 1.3.1 "Kremniyli asboblarning strukturalarida radiatsiyaviy-induksiyalangan markazlarining nuqson-kirishma muhandisligi" mavzusidagi loyihasining "Kondensirlangan holat fizikasi va yangi funksional materiallarni yaratish hamda ularni olish texnologiyalari" kichik dasturini amalga oshirish jarayonida foydalanilgan (Belorusiya FANing materialshunoslik bo'yicha ilmiy-amaliy markazining 2022 yil 14 noyabrda №150-01-39/583-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish nikel bilan legirlangan kremniy asosida olingan diodlar va MDYa-strukturalarning funksional imkoniyatlarini oshirishga imkon bergan;

kremniydagi nikel kirishma atomlari to'plamlarining strukturaviy tuzilishi asosan, diffuziya harorati va diffuziyadan so'ng namunalarni sovitish tezligi qiymatlariga bog'liq bo'lib, $T \geq 1273$ K diffuziya haroratlarida olingan, so'ngra tez sovitilgan (≥ 200 K/s) namunalarda o'lchami bir necha yuzlab nanometrga yetuvchi kirishma nanobirikmalari, sekin sovitilgan (≤ 1 K/s) namunalarda esa o'lchami 10 mkm gacha bo'lgan kirishma mikrobirikmalari shakllanishidan; termik tavlash harorati $T = 1073$ K ni tashkil etganda nikel kirishma nanobirikmalari n-Si<Ni> namunalarda 10 minut davomida, p-Si<Ni> namunalarda esa 15÷20 minut davomida parchalanishidan «FOTON» AJda ishlab chiqariladigan yarimo'tkazgichli kremniy asosidagi elektron qurilmalar tayyorlashda foydalanilgan («O'zeltexsanoat» aksionerlik jamiyatining 2022 yil 9 dekabrda №04-3/2558-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish nikel bilan legirlangan kremniy tajribaviy namunalarning elektrofizik parametrlarini termik tavlash ta'sirida boshqarish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 9 ta xalqaro va 11 ta Respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy- amaliy konferentsiyalarda ma'ruza va muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha asosiy natijalar 34 ta ilmiy ishda, ulardan 8 tasi dissertatsiya ishlarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, shu jumladan 4 ta maqola xorijiy xalqaro jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 52 ta rasm, 4 ta jadvalni o'z ichiga olgan holda, 105 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi asoslangan, tadqiqotning Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi ochib berilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqot ob'ektlari, tadqiqot

usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, ishni aprotatsiyadan o'tganligi va nashr qilinishi, shuningdek dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

“Yarimo‘tkazgichlarda hosil bo‘luvchi kirishma atomlarining to‘plamlari” deb nomlangan birinchi bobda 3d-guruh elementlari bilan legirlangan yarimo‘tkazgichlar hajmida hosil qiluvchi nuqsonlarning tabiati, turli usullar bilan legirlangan kremniy monokristali hajmida hosil bo‘luvchi kirishma atomlari to‘plamlarining hosil bo‘lish mexanizmlari, xususan diffuziya usulida legirlangan kremniy monokristali hajmidagi nikel kirishma atomlari mikro- va nanobirikmalarining morfologik xususiyatlari, kirishma nuqsonlarining kremniy monokristali elektrofizik xususiyatlariga ta'siri bo'yicha adabiyotlardagi ma'lumotlar tahlili keltirilgan.


“Kremniydagi kirishma atomlari to‘plamlarining morfologik parametrlarini tadqiq qilish usullari” deb nomlangan ikkinchi bobda yarimo‘tkazgichli materiallarda hosil bo‘luvchi kirishma atomlari to‘plamlarining morfologik parametrlarini aniqlash bo'yicha tadqiqotlarni o'tkazish usullari, tayyorlangan namunalarning elektrofizik parametrlarini o'lchash haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Nikel kirishma atomlari mikro- va nanobirikmalariga ega bo'lgan kremniy monokristalini olish bo'yicha diffuziya texnologiyasining xususiyatlari o'rganish, mavjud adabiyotlardagi ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida Choxralskiy usulida o'stirilgan, solishtirma qarshiligi $\rho=5\div 40$ Om-sm ga teng bo'lgan n-tipdagi hamda solishtirma qarshiligi $\rho=5\div 20$ Om-sm bo'lgan p-tipdagi kremniy monokristallariga nikelning diffuziyasi $T=873\div 1573$ K harorat intervalida, davomiyliqi $t=20$ minutdan 8 soatgacha bo'lgan vaqt oralig'ida o'tkazildi. Diffuziyadan so'ng sovitish tezligi 0.01 K/sek $< v_{sov} < 400$ K/sek qiymatlarida kirishma nikel atomlarining kremniy hajmida elektr faol va elektr faol bo'lmagan holatlarda taqsimlanishini aniqlashtirish bo'yicha eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi. Namunalarning qatlamlarini olib tashlash usuli va ularning radioaktiv tahlili asosida $Si\langle Ni\rangle$ namunalariidagi nikel kirishma atomlari konsentratsiyasi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qalinligi 2 mm bo'lgan kremniy namunalari $T\geq 1523$ K haroratlarda 2 soat davomida tavlashda to'yinadi. Tavlanish vaqtining yanada ortishi Ni atomlari konsentratsiyasining sezilarli o'zgarishiga olib kelmaydi va bu konsentratsiya qiymati tadqiqotlar o'tkazilgan harorat intervalida eng yuqori eruvchanlik qiymati sifatida qabul qilindi.


Tajribalar uchun kremniyning dastlabki namunalari $2\times 5\times 10$ mm o'lchamda parallelepiped shaklida kesib olindi. So'ngra ularning sirtiga Ni elementi 500 nm qalinlikda uchirildi. Si sirtiga uchirilgan Ni qatlamidan vakuum sharoitida (10^{-4} bar) diffuziyani amalga oshirish uchun namunalari joylashtirishga imkon beradigan maxsus ampulalar tayyorlandi. Bir tomonlama va ikki tomonlama nikel qatlamlariga ega bo'lgan Si namunalari ampulalarga joylashtirildi (1-rasm).

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida dastlabki legirlovchi kirishmaning turi (P, B), ular hosil qiluvchi energetik sathlarning tabiati (akseptor yoki donor), shuningdek, IQ faol kislorodning konsentratsiyasi ($10^{16}\div 10^{18}$ sm⁻³) nikelning kremniydagi

umumiy eruvchanligiga ta'sir etmasligi aniqlandi. Boshqa 3d-o'tish guruhi elementlari bilan solishtirilganda Si da Ni eng yuqori eruvchanlik va diffuziya koeffitsientiga ega bo'lib, kirishma atomlarining umumiy soni uning elektr faol qismiga nisbatan uch tartibga yuqori qiymatga ega. Shuningdek, olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, kremniydagi dislokatsiyalar zichligining 10^2 dan 10^7 sm^{-2} gacha o'zgarishi hamda boshlang'ich fosfor kirishma atomlarining konsentratsiyasi 10^{13} dan 10^{19} sm^{-3} gacha o'zgarishi o'rganilayotgan harorat intervalida Ni umumiy eruvchanligini sezilarli darajadagi o'zgarishiga olib kelmaydi.



1-rasm. Nikelni kremniyga diffuziya qilish uchun olingan ampulalar.




2-rasm. Kremniyda nikel kirishma atomlari eruvchanligining diffuziya haroratiga bog'liqligi.

Kremniyda nikel atomlari uchun maksimal eruvchanlik qiymati $T=1523 \text{ K}$ haroratda $5 \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-3}$ ni tashkil etib, diffuziyaviy tavlash harorati $T=1573 \text{ K}$ ga ko'tarilganda ushbu qiymat uncha katta bo'lmagan miqdorda kamayadi va $4.5 \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-3}$ ni tashkil etadi (2-rasm). Taqqoslash uchun mazkur yo'nalishda tadqiqotlar olib borgan boshqa mualliflar Lindroos J., Fenning D.P., Backlund D.J. lar tomonidan olingan natijalarga asosan $T=1158 \text{ K}$ haroratda 30 minut davomida nikelni kremniyga diffuziya qilinganda nikelning umumiy konsentratsiyasi $\sim 6.5 \cdot 10^{16} \text{ sm}^{-2}$ ni tashkil etgan.

Kremniyga nikelni diffuziya qilish jarayonida tavlani davomiyligining kremniyga kiritilgan elektr faol kirishma atomlari konsentratsiyasiga ta'siri $T=1273 \div 1573 \text{ K}$ harorat intervalida o'rganildi. 3-rasmdan ko'rinib turibdiki, dastlab diffuziya harorati $T=1273 \text{ K}$ ni tashkil etganda, kremniydagi elektr faol nikel atomlari konsentratsiyasi diffuziya vaqti ortishi bilan sekin ortib boradi. U o'zining maksimal ko'rsatkichiga tavlani vaqti $t=3.5$ soatga yetganda erishadi va uning qiymati $3 \cdot 10^{13} \text{ sm}^{-3}$ ga tenglashadi. Diffuziya vaqtining keyingi uzaytirilishi davomida u asta-sekin kamayib borib, $t=8$ soatga yetganda ushbu qiymat $\sim 9 \cdot 10^{12} \text{ sm}^{-3}$ ni tashkil qiladi. $T=1373 \text{ K}$ haroratda nikelni kremniyga diffuziya qilish jarayonining dastlabki 1 soatdan 2 soatgacha bo'lgan vaqt oralig'ida elektr faol kirishma atomlari konsentratsiyasining sezilarli ortishi kuzatilib, bunda uning qiymati $4.5 \cdot 10^{13} \text{ sm}^{-3}$ ga erishadi. Shundan so'ng diffuziya vaqtining keyingi

qiymatlarida ushbu qiymat kamayib boradi va $t=8$ soatni tashkil qilganda u deyarli o‘zining dastlabki qiymatiga yaqinlashadi. Diffuziya harorati $T=1473$ K ni tashkil etganda esa, dastlabki 2 soat mobaynida elektr faol nikel atomlari konsentratsiyasining keskin o‘shishi kuzatiladi va u $\sim 10^{14}$ sm^{-3} ga tenglashadi. Undan keyingi tavlaniish vaqtida ushbu qiymat oxista kamayib boradi, hamda $t=8$ soatga yetganda u $\sim 4 \cdot 10^{13}$ sm^{-3} ni tashkil etadi. So‘ngra diffuziya haroratini $T=1523$ K ga ko‘tarib, tavlaniish vaqtini $t=30$ minutdan 2 soatgacha oshirib borilganda kremniydagi elektr faol nikel atomlari konsentratsiyasi deyarli bir tartibga ortadi va uning qiymati $\sim 5 \cdot 10^{14}$ sm^{-3} ni tashkil etadi. Tavlaniish vaqtini keyinchalik oshirib borilishi elektr faol nikel atomlari miqdorining kamayib borishiga olib keladi. Tavlaniish vaqti $t=8$ soatni tashkil etganda ushbu qiymat $\sim 10^{14}$ sm^{-3} ga tenglashadi.



3-rasm. Kremniydagi elektr faol nikel kirishma atomlari konsentratsiyasining turlicha haroratlarda diffuziyaviy tavlaniish vaqtiga bog‘liqligi: 1– $T=1273$ K, 2– $T=1373$ K, 3– $T=1473$ K, 4– $T=1523$ K.

Olingan natijalar asosida diffuziyaviy tavlaniish harorati $T=1523$ K va tavlaniish vaqti 2 soatga teng bo‘lganda, kremniydagi elektr faol nikel kirishma atomlari konsentratsiyasi o‘zining eng katta qiymatiga erishishi va u $5 \cdot 10^{14}$ sm^{-3} ni tashkil etishi aniqlandi. Diffuziya haroratining $T \geq 1373$ K qiymatlarida, dastlabki 2 soatdan so‘ng diffuziya vaqtini keyingi oshirib borilishi natijasida namunalardagi elektr faol nikel kirishma atomlari konsentratsiyasi kamayib borishi kuzatildi. Shuningdek, tavlaniish haroratining ortib borishi bilan elektr faol nikel kirishma atomlari konsentratsiyasi tobora qisqaroq vaqt davomida keskin ortib, o‘zining maksimal qiymatiga erishishi ma’lum bo‘ldi.

Shuningdek, ushbu bobda n- va p-tipdagi Si<Ni> namunalarida hosil bo‘lgan kirishma atomlari to‘plamlarining morfologik kattaliklarini o‘rganish usullari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Xususan nikel kirishma to‘plamlarining hajmi, shakli, strukturaviy tuzilishi va kimyoviy tarkibini batafsil o‘rganish uchun ushbu kattaliklarni yuqori aniqlik bilan o‘lchash imkonini beradigan zamonaviy «Superprobe JXA-8800R» (JEOL) elektron-zondli mikroanalizatori hamda JSM-IT200 skanerlovchi elektron mikroskoplaridan foydalanildi.

“Kremniy monokristalida nikel kirishma atomlari to‘plamlarining tuzilishi va tarkibi” deb nomlangan uchinchi bobda kremniy monokristalida nikel kirishma atomlari to‘plamlari shakllanishi jarayoniga diffuziya kattaliklarining ta’siri, nikel kirishma to‘plamlarining o‘lchamlari va shakllari, ularning elementli tarkibi va tuzilishi, birqatlamli va ko‘pqatlamli nikel kirishma to‘plamlarining strukturaviy xossalarini o‘rganish bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Tajribalar natijalari shuni ko‘rsatdiki, diffuziya usulida $T_{diff} < 1273$ K haroratlarda nikel bilan legirlangan kremniy namunalari hajmida, ularning tipidan qat’iy nazar kirishma atomlari mikro- va nanobirikmalari hosil bo‘lishi kuzatilmaydi. $T_{diff} = 1273$ K haroratda diffuziya qilingandan so‘ng $v_{sov} = 200$ K/s tezlik bilan sovutilgan n-Si<Ni> namunalarda nikel kirishma nanobirikmalari hosil bo‘lishi aniqlandi. Bunday diffuziya sharoitida olingan namunalarda kirishma nanobirikmalarining eng katta o‘lchami 300 nm ga yetib, ular asosan, ignasimon va linzasimon shakllarga ega bo‘ladi. Mazkur haroratda diffuziya qilingandan so‘ng $v_{sov} = 0.05$ K/s tezlik bilan sekin sovutilgan n-Si<Ni> namunalarda esa o‘lchamlari 300÷350 nm ga yetuvchi linzasimon va sharsimon shakllarga ega bo‘lgan kirishma nanobirikmalari hosil bo‘ladi (4-rasm). Ushbu kirishma nanobirikmalari namuna sirtidan $l = 200$ mkm chuqurlikkacha bo‘lgan qatlamda hosil bo‘lishi kuzatiladi.



4-rasm. $T_{diff} = 1273$ K haroratda diffuziyadan so‘ng, $v_{sov} = 0.05$ K/s tezlik bilan sovutilgan n-Si<Ni> namunalarda hosil bo‘lgan kirishma nanobirikmalari tasviri.




5-rasm. $T_{diff} = 1273$ K haroratda diffuziyadan so‘ng, $v_{sov} = 0.05$ K/s tezlik bilan sovutilgan p-Si<Ni> namunalarda hosil bo‘lgan kirishma nanobirikmalari tasviri.

Xuddi shunga o‘xshash sharoitda, ya’ni diffuziya harorati $T_{diff} = 1273$ K ni tashkil etib, undan so‘ng $v_{sov} = 0.05$ K/s sovitish tezligi bilan olingan p-Si<Ni> namunalarning sirtga yaqin sohalarida ham nikel kirishma nanobirikmalari hosil bo‘lishi kuzatildi (5-rasm). Bunda o‘lchami 250 nm gacha bo‘lgan nanobirikmalar hosil bo‘lib, ularning shakllari asosan ignasimon va linzasimon ko‘rinishga ega. Bunday kirishma nanobirikmalari namuna sirtidan $l = 150$ mkm gacha bo‘lgan masofadagi qatlamda hosil bo‘lishi aniqlandi.

Kremniy monokristalidagi nikel kirishma to‘plamlarining sirtidan hajmga qarab yo‘nalishdagi taqsimot zichligiga bo‘yicha olingan natijalarga ko‘ra $T_{diff} = 1273$ K haroratda 2 soat davomida diffuziya qilingandan so‘ng, sekin sovutilgan n-Si<Ni> namunalarda sirtidan $l = 200$ mkm gacha bo‘lgan chuqurlikdagi sohada hosil bo‘lishi kuzatilib, ular miqdori juda kam, ya’ni 1 sm^{-2} yuzada bir nechtani tashkil etadi (6-

rasm). Diffuziya harorati $T_{diff} = 1373$ K ga ko‘tarilganda, kirishma to‘plamlari namunalar sirtidan $l=400$ mkm gacha bo‘lgan chuqurlikdagi sohada hosil bo‘lishi kuzatiladi va ularning sirtga yaqin sohadagi zichligi ~ 10 sm⁻² ni tashkil etadi. $T_{diff}=1473$ K ni tashkil etganda, olingan namunalarda hosil bo‘luvchi nikel kirishma to‘plamlari, namuna sirtidan $l=800$ mkm gacha bo‘lgan chuqurlikda ham kuzatiladi. Namunaning ushbu sohasida ularning zichligi $\sim 70 \div 80$ sm⁻² ni tashkil qiladi. $T_{diff}=1523$ K haroratda diffuziya qilingan n-Si<Ni> namunalarida nikel kirishma to‘plamlari butun hajm bo‘ylab hosil bo‘lishi aniqlandi. Bunda namuna sirtiga yaqin sohada ($l=50$ mkm) ularning zichligi $\sim 7 \cdot 10^2$ sm⁻² ni tashkil qiladi.



6-rasm. $T=1273 \div 1523$ K harorat intervalida diffuziya qilingandan so‘ng $v_{sov}=0.05$ K/s tezlik bilan sovitilgan n-Si<Ni> namunalarida kirishma to‘plamlari maksimal zichligining sirtidan hajmga qarab yo‘nalishdagi taqsimoti.


Kremniydagi nikel kirishma atomlarining mikro- va nanobirikmalari tarkibiy tuzilishini, kimyoviy tarkibini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, uning tuzilishi, asosan, diffuziyaviy tavlanişdan keyingi namunalarning sovitish tezligi – v_{sov} qiymatiga bog‘liq. 7-rasmda $T=1523$ K haroratda diffuziyadan so‘ng sekin (a) va tez (b) sovitish tezligi bilan olingan n-Si<Ni> namunalaridagi kirishma atomlari to‘plamlarining tasvirlari ko‘rsatilgan. Bunda namunalarni sovitish tezliklari tez sovitganda $v_{sov}=100$ K/s ni, sekin sovitishda esa $v_{sov} \leq 1$ K/s ni tashkil etgan.

Tasvirlardan ko‘rinib turibdiki, sekin sovitish bilan olingan namunalar hajmida o‘lchamlari bir necha yuz nanometrdan bir necha mikrometrgacha bo‘lgan, nisbatan katta kirishma mikrobirikmalari hosil bo‘ladi. Bunday mikrobirikmalar chegaralari aniq ajralib turadigan ko‘p qatlamli tuzilishga ega bo‘lib, ular asosan sharsimon shaklga ega (7-rasm (a)). Ko‘p qatlamli mikrobirikmalarning tuzilishiga ko‘ra, ularda har bir qatlam har xil qalinlik qiymatlariga ega bo‘lishi mumkin.


Tez sovitilgan n-Si<Ni> namunalari hajmida esa asosan, nisbatan kichik o‘lchamlarga (700-800 nm gacha) ega bo‘lgan nanobirikmalar hosil bo‘lib, ular asosan, bir qatlamli tuzilishga ega bo‘ladi (7-rasm (b)).

$T=1523$ K haroratda 2 soat davomida diffuziya qilingandan so‘ng $v_{sov}=0.05$ K/s tezlik bilan sekin sovitilgan n-Si<Ni> namunalaridagi kirishma mikrobirikmalarining morfologik kattaliklarini o‘rganish natijalari, ularda hosil bo‘luvchi nikel mikrobirikmalari o‘lchami $7 \div 8$ mkm ga yetib, ularning tarkibiy


tuzilishida qatlamlar soni yanada ko‘proq bo‘lishini ko‘rsatdi. Diametri $d=7$ mkm ga teng bo‘lgan sharsimon shakldagi, beshta qatlamdan iborat mikrobirikmaning kimyoviy tarkibini tahlil qilish natijalari 8-rasmda keltirilgan. Undan ko‘rinib turibdiki, mazkur mikrobirikmaning markaziy qatlamida nikel atomlarining miqdoriy ulushi 73 % ni, Si atomlari esa 25 % tashkil etadi. Mikrobirikmaning markazdan keyingi joylashgan qatlamida nikel atomlari uchun mazkur qiymat sezilarli darajada kamayib 65 % ni, Si atomlari esa aksincha ortib 34 % tashkil qiladi. Mikrobirikma sirtiga tomon yo‘nalishda joylashgan navbatdagi qatlamda nikel atomlari ulushi yanada kamayadi va 50 % ni, Si atomlari esa 48 % ga tenglashadi. Keyingi joylashgan qatlamda ushbu ko‘rsatkichlar Ni va Si atomlari uchun mos ravishda 32 % va 67 % ni tashkil etadi. Mazkur mikrobirikmaning oxirgi sirtqi qatlamida nikel atomlarining miqdoriy ulushi 24 % ga, Si atomlari uchun ushbu ko‘rsatkich 75 % ga tenglashadi.



7-rasm. n-Si<Ni> namunalaridagi kirishma atomlari to‘plamlarining tasvirlari: a – sekin ($v_{\text{sov}} \leq 1$ K/s) sovitilgan namuna, b – tez ($v_{\text{sov}}=100$ K/s) sovitilgan namuna.



8-rasm. n-Si<Ni> namunasida sharsimon shakldagi, diametri $d=7$ mkm bo‘lgan ko‘pqatlamli kirishma mikrobirikmasi hajmi bo‘yicha Ni va Si atomlarining taqsimoti.




9-rasm. p-Si<Ni> namunasida o‘lchami $d=500$ nm bo‘lgan ignasimon shakldagi, bir qatlamli tuzilishga ega kirishma nanobirikmasi hajmi bo‘yicha Si va Ni atomlarining taqsimoti.

$T=1523$ K haroratda 2 soat davomida diffuziya qilingandan keyin $v_{\text{sov}}=200$ K/s sovitish tezligi bilan olingan p-Si<Ni> namunalarida hosil bo‘luvchi nikel kirishma nanobirikmalari hajmi bo‘yicha kirishma atomlari bir tekis taqsimlanganligi aniqlandi. Bir qatlamli tuzilishga ega bo‘lgan, o‘lchami $d=500$ nm ni tashkil etuvchi

ignasimon shakldagi kirishma nanobirikmasi hajmida Si hamda asosiy kirishma Ni atomlari taqsimoti 9-rasmda keltirilgan.

Kirishma to'plamlarining tarkibiy tuzilishini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari n-Si<Ni> va p-Si<Ni> namunalarida hosil bo'luvchi kirishma mikro- va nanobirikmalari hajmida Fe, Cr, Cu kabi texnologik kirishmalar atomlari mavjudligini ko'rsatdi. Sharsimon shakldagi diametri $d=2.8$ mkm bo'lgan uch qatlamli kirishma mikrobirikmasi kimyoviy tarkibini o'rganish bo'yicha olib borilgan tahlillar orqali, uning har bir qatlamida temir va mis texnologik kirishma atomlarining taqsimotini aniqlandi. Undagi temir va mis texnologik kirishma atomlari foizining mikrobirikma diametriga bog'liqlik grafigi 10-rasmda keltirilgan. Mazkur mikrobirikmaning markaziy qismida temir atomlarining ulushi ~ 0.3 % ni, mis atomlari esa ~ 0.2 % ni tashkil qiladi. Mikrobirikmaning keyingi qatlamida Fe va Cu atomlarining ulushi mos ravishda ~ 0.24 % ga va ~ 0.15 % ga kamayadi. Mikrobirikmaning sirtqi qatlamida bu ko'rsatkichlar yanada kamayib, Fe va Cu atomlari uchun ular mos ravishda ~ 0.2 % va ~ 0.12 % ni tashkil qiladi.




10-rasm. p-Si<Ni> namunasida diametri $d=2.8$ mkm ga teng, sharsimon shakldagi, ko'p qatlamli tuzilishga ega bo'lgan kirishma mikrobirikmasi hajmi bo'yicha Fe va Cu texnologik kirishmalari atomlarining taqsimoti.

JSM-IT200 skanerlovchi elektron mikroskop yordamida n-Si<Ni> va p-Si<Ni> namunalaridagi kirishma atomlari to'plamlarining strukturaviy tuzilishi, kimyoviy tarkibi o'rganildi. Bunda elektronlarni tezlashtiruvchi kuchlanish 20 kV ni, namunalar joylashgan kameradagi bosim 80 Pa ni tashkil etgan. Tadqiqotlar uchun dastlab n- va p- tipdagi Si<Ni> namunalari tayyorlandi. n-Si<Ni> namunalarini olish uchun Choxralskiy usulida o'stirilgan, solishtirma qarshiligi 0.3 Om·sm bo'lgan KEF markali kremniy monokristalidan, p-Si<Ni> namunalarini olish uchun esa Choxralskiy usulida o'stirilgan, solishtirma qarshiligi 0.3 Om·sm bo'lgan KDB markali kremniy monokristalidan foydalanildi. Kremniyga nikel diffuziyasi $T=1573$ K haroratda $t=2$ soat davomida amalga oshirildi. Diffuziyadan so'ng namunalar tez ($v_{sov}=200$ K/s) va sekin sovitish ($v_{sov}=1$ K/s) usullari bilan sovitildi.


11-rasmda sekin sovitish usuli bilan olingan n-Si<Ni> namunalarida hosil bo'luvchi kirishma mikrobirikmalarining tasviri keltirilgan. Undan ko'rinib turibdiki, sekin sovitish bilan olingan namunalar hajmida o'lchamlari bir necha mikrometrga yetuvchi, nisbatan katta o'lchamli kirishma mikrobirikmalari hosil

bo'ldi. Bunday mikrobirikmalar asosan, ko'p qatlamli tuzilishga ega bo'lib, ular turlicha kimyoviy tarkibga ega ekanligi aniqlandi.



2 μm


11-rasm. Sekin sovitilgan n-Si<Ni> namunasida kirishma atomlari to'plamlarining tasviri.



2 μm

12-rasm. Tez sovitilgan n-Si<Ni> namunasida kirishma atomlari to'plamlarining tasviri.


Sekin sovitilgan n-Si<Ni> namunasida hosil bo'lgan o'lchami ~1,8 mkm ga teng, sferasimon shakldagi kirishma mikrobirikmasi tarkibi o'rganilganda, unda Si va Ni atomlari bilan birga temir, xrom, kislorod va uglerod kabi texnologik kirishma atomlarining mavjudligi ma'lum bo'ldi (13-rasm). Ushbu mikrobirikmaning kimyoviy tarkibini tahlil qilish natijalari uning markaziy sohasida kirishma Ni atomlarining foizli ulushi 52.58 %, Si atomlari 45.38 %, temir atomlari 0.42 %, xrom atomlari 0.31 %, kislorod atomlari 0.73 % va uglerod atomlari 0.58 % ni tashkil etishini ko'rsatdi. Mikrobirikmaning sirtga yaqin sohasida esa Ni atomlarining foizli ulushi 24.44 %, kremniy atomlari 74.14 %, temir atomlari 0.31 %, xrom atomlari 0.24 %, kislorod atomlari 0.55 % va uglerod atomlari 0.32 % ni tashkil etishi aniqlandi.




13-rasm. Sekin sovitilgan n-Si<Ni> namunasida o'lchami ~1.8 mkm ga teng bo'lgan sferasimon kirishma mikrobirikmasi elementli tarkibini umumiy spektri.

Diffuziyadan so'ng tez sovitish usuli bilan olingan n-Si<Ni> namunalarida o'lchamlari bir necha yuzlab nanometrdan bir necha mkm gacha bo'lgan kirishma nano- va mikrobirikmalari hosil bo'lishi kuzatildi (12-rasm). Namuna hajmida hosil bo'lgan o'lchami ~700 nm ga teng, ignasimon shakldagi kirishma nanobirikmasining kimyoviy tarkibi o'rganilganda, undagi Ni atomlarining foizli

ulushi 23.23 %, Si atomlari 75.42 %, temir atomlari 0.26 %, xrom atomlari 0.31 %, kislorod atomlari 0.43 % va uglerod atomlari 0.35 % ni tashkil qilishi aniqlandi. 14-rasmda sekin sovitish usuli bilan olingan p-Si<Ni> namunalaridagi kirishma atomlari to‘plamlarining tasviri keltirilgan. Undan ko‘rinib turibdiki, ushbu namunalar hajmida o‘lchamlari bir necha yuz nanometrdan bir necha mikrometrgacha bo‘lgan kirishma atomlari to‘plamlari hosil bo‘ladi. Nisbatan katta o‘lchamli kirishma mikrobirikmalari, asosan, ko‘p qatlamli strukturaga ega bo‘lib, har bir qatlam turlicha kimyoviy tarkibga ega bo‘ladi.



14-rasm. Sekin sovitilgan p-Si<Ni> namunalarida kirishma atomlari to‘plamlarining tasviri.



15-rasm. Tez sovitilgan p-Si<Ni> namunalarida kirishma atomlari to‘plamlarining tasviri.

14-rasmda keltirilgan o‘lchami ~1 mkm ga teng bo‘lgan nikel mikrobirikmasi kimyoviy tarkibini tahlil qilish natijalariga ko‘ra uning markaziy sohasida kirishma Ni atomlarining foizli ulushi 51.65 %, Si atomlari 46.32 %, temir atomlari 0.32 %, xrom atomlari 0.2 %, kislorod atomlari 0.82 % va uglerod atomlari 0.69 % ni tashkil qiladi. Ushbu mikrobirikmaning sirtga yaqin sohalarida esa Ni atomlarining foizli ulushi 25.46 %, kremniy atomlari 73.14 %, temir atomlari 0.21 %, xrom atomlari 0.14 %, kislorod atomlari 0.64 % va uglerod atomlari esa 0.41 % ni tashkil etishi aniqlandi.

15-rasmda tez sovitilgan p-Si<Ni> namunalarida hosil bo‘luvchi kirishma nanobirikmalari tasviri keltirilgan. Undagi o‘lchami ~400 nm ga teng bo‘lgan nikel nanobirikmasining kimyoviy tarkibi bo‘yicha olingan natijalar, unda Ni atomlarining foizli ulushi 24.68 %, Si atomlari 73.87 %, temir atomlari 0.22 %, xrom atomlari 0.15 %, kislorod atomlari 0.65 % va uglerod atomlari 0.43 % ni tashkil qilishini ko‘rsatdi.


“Kremniydagi nikel kirishma to‘plamlari xossalari va ularga tashqi omillarning ta’siri” deb nomlangan to‘rtinchi bobda diffuziya usulida Ni bilan legirlangan Si namunalarida hosil bo‘luvchi kirishma to‘plamlari strukturaviy xossalari, shuningdek, nikel kirishma to‘plamlariga ega bo‘lgan kremniyning elektrofizik parametrlariga termik tavlash va tashqi har tomonlama gidrostatik bosimning ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Yuqori diffuziya haroratlarida ($T \geq 1273$ K) nikel bilan legirlangan kremniyda hosil bo‘luvchi kirishma nanobirikmalari asosan bir qatlamli, mikrobirikmalari esa ko‘p qatlamli tuzilishga ega bo‘ladi. Kremniydagi nikel kirishma mikrobirikmalari ikki va undan ortiq qatlamli tuzilishga ega bo‘lib, ular Ni_xSi_y tipidagi silitsidlardan

tashkil topadi. Kirishma nanobirikmalari esa asosan bir qatlamli tuzilishga ega bo‘lib, ular NiSi_3 silitsididan tashkil topadi.

$n\text{-Si}\langle\text{Ni}\rangle$ va $p\text{-Si}\langle\text{Ni}\rangle$ namunalari solishtirma qarshiligiga turli haroratlarda termik ishlov berishning ta’siri, shuningdek termik ishlov ta’sirida nikel kirishma mikro- va nanobirikmalari morfologiyalarining o‘zgarishini tadqiq qilish maqsadida, namunalarga $T=573\div 1073$ K harorat intervalida, $10\div 100$ minut vaqt oralig‘ida izotermik ishlov berildi. Namunalarning solishtirma qarshiligi har bir tavlaniş bosqichidan keyin o‘lchab borildi. Termik ishlovning har bir bosqichidan so‘ng namunalarning strukturaviy tahlillari Superprobe JXA-8800R elektron-zondli mikroanalizatori yordamida amalga oshirildi.

Boshlang‘ich solishtirma qarshiligi $\rho_0=5\cdot 10^3$ Om·sm bo‘lgan $n\text{-Si}\langle\text{Ni}\rangle$ namunalarning solishtirma qarshiligini termik tavlash vaqtiga bog‘liqligini o‘rganish bo‘yicha olingan natijalar 16-rasmda ko‘rsatilgan. $n\text{-Si}\langle\text{Ni}\rangle$ namunalari solishtirma qarshilikni tavlaniş vaqtiga bog‘liqligining bunday xarakterini quyidagicha izohlash mumkin, ya’ni tavlaniş harorati oshib borgan sari, tavlanişning dastlabki bosqichlarida elektr faol nikel kirishma atomlarining konsentratsiyasi kirishma nanobirikmalarining parchalanishi hisobiga oshib boradi va ular kristall panjara tugunlariga joylashadi. Termik tavlash vaqtining yanada ortishi bilan u to‘yinish holatiga yetadi va keyinchalik nikel atomlarining tugunlardan tugunlararo fazoga, elektr faol bo‘lmagan komplekslar hosil qilish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘tish jarayoni asta-sekin ortib boradi. Buning oqibitida namunalarning solishtirma qarshiligi qiymatini biroz pasayishi kuzatiladi.




